

SAMARQAND MUZEYLARINING MADANIY MEROSNI SAQLASHDAGI O‘RNI

Jumanov Asliddin Furqatovich

“Samarqand” davlat muzey qo‘riqxonasi rahbar kotibi

Telefon: +998996842084

jumanovsarvar06@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Samarqand shahrining muzeylari hamda O‘zbekiston madaniy merosidagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Samarqand tarixiy shaxarlardan biri sifatida ko‘plab qadimiy arxitektura yodgorliklari, madaniy obidalar va arxeologik joylarga boydir. Maqolada bu madaniy merosni saqlash va asrash bo‘yicha amalga oshirilayotgan tadbirlar, davlat siyosati va xalqaro hamkorlik asosida olib borilayotgan ishlarga e‘tibor qaratiladi. Shuningdek, madaniy merosni zamonaviy muhitda saqlashning dolzarb masalalari, muammolari va ularni hal etish yo‘llari ko‘rib chiqiladi. Samarqandning madaniy merosi nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki iqtisodiy, turizm va milliy o‘zlikni saqlash nuqtai nazaridan ham katta qiymatga ega ekanligi ta’kidlanadi.

Annotation: This article analyzes the museums of the city of Samarkand and its place and significance in the cultural heritage of Uzbekistan. Samarkand, as one of the historical cities, is rich in many monuments of ancient architecture, cultural sites and archaeological monuments. The article will talk about the work carried out on the preservation and preservation of this cultural heritage, on the basis of Public Policy and international cooperation. **Annotation:** this article analyzes the museums of the city of Samarkand and its place and significance in the cultural heritage of Uzbekistan. Samarkand, as one of the historical cities, is rich in many monuments of ancient architecture, cultural sites and archaeological monuments. The article will talk about the work carried out on the preservation and preservation of this cultural heritage, on the basis of Public Policy and international cooperation. **Abstract:** This article analyzes the museums of the city of Samarkand and their place and importance in the cultural heritage of Uzbekistan. Samarkand, as one of the historical cities, is rich in many monuments of ancient architecture, cultural sites and archaeological monuments. The article will talk about the work carried out on the preservation and preservation of this cultural heritage, on the basis of Public Policy and international cooperation. Pressing problems, problems and ways to solve them were also considered when maintaining cultural heritage in modern conditions. It is noted that the cultural heritage of Samarkand is of great importance not only in terms

of historical significance, but also in terms of economic, tourist and national preservation of identity.

Аннотация: *в данной статье анализируются музеи города Самарканда, их место и значение в культурном наследии Узбекистана. Самарканд, как один из исторических городов, богат множеством памятников древней архитектуры, культурных объектов и археологических раскопок. В статье будет описана работа, проводимая для сохранения этого культурного наследия на основе государственной политики и международного сотрудничества.* **Аннотация:** *В данной статье анализируются музеи города Самарканда, их место и значение в культурном наследии Узбекистана. Самарканд, как один из исторических городов, богат множеством памятников древней архитектуры, культурных объектов и археологических раскопок. В статье будет рассказано о работе, проводимой для сохранения этого культурного наследия, на основе государственной политики и международного сотрудничества.* **Аннотация:** *В данной статье анализируются музеи города Самарканда, их место и значение в культурном наследии Узбекистана. Самарканд, как один из исторических городов, богат множеством памятников древней архитектуры, культурных объектов и археологических раскопок. В статье будет рассказано о работе, проводимой для сохранения этого культурного наследия, на основе государственной политики и международного сотрудничества. Также были обсуждены текущие проблемы, недостатки и пути их решения при сохранении культурного наследия в современных условиях. Отмечается, что культурное наследие Самарканда имеет большое значение не только с точки зрения исторического значения, но и с точки зрения экономики, туризма и сохранения национальной идентичности.*

Kalit so‘z: *Muzeylar, Yer osti suvi, madaniy meros, sivilizatsiyalar, harorat, rivojlantirish, chora tadbirlar, muammolar, raqamlashtirish, xafsizlik, madaniy-marifiy tadirlar.*

Samarqand-O‘zbekistondagi eng qadimiy va tarixiy shaharlaridan biri bo‘lib, u ming yillar davomida turli sivilizatsiyalar, madaniyatlar va dinlarning chorrahasida joylashgan. Bu muqaddas zamin o‘zida ulkan tarixiy, madaniy va ilmiy boyliklarni jamlagan. Ushbu boy merosni asrab-avaylash, saqlash va kelajak avlodlarga yetkazishda muzeylarning roli beqiyosdir. Ayniqsa, Samarqandda faoliyat yuritayotgan muzeylar nafaqat tarixiy eksponatlarni saqlaydi, balki ilmiy-tadqiqot ishlari, ma’rifiy faoliyat, restavratsiya va xalqaro madaniy aloqalarni ham rivojlantirishda muhim vazifalarni bajaradi. Shu bilan bir qatorda yurtimizda milliy meros, qadriyatlarga bo‘lgan etibor yil sayin oshib bormoqda. Bu

borada muzeylar faoliyati bilan bog'liq masalalar muhi o'rin tutmoqda. Muhtaram prezidentimiz tashabbusi bilan mamlakatimizda muzey ishini tubdan yangilash yuzasidan qat'iy choralar ko'rilmoqda hamda bir qator qonunlar ham qabul qilingan. {Jumladan, Vazirlar Maxkamasining 1994 yil 23 dekabrda " Respublika muzeylari faoliyatini yaxshilash chora tadbirlari ro'g'risida"gi 618 sonli, 1998 yil 12 yanvardagi PF 1913 sonli "muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risida"gi farmonlari e'lon qilindi.(7-8 b o'zbekiston muzeylari istiqboli kitobi, D.Qurbonova)

Bu qonunlar ijrosini Samarqand davlat muzey qo'riqxonasi timosida korib chiqishimiz mumkin O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-maydagi "Muzeylarda xizmatlar sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining 8.5-bandiga muvofiq, har yili davlat muzeylarida aholidan xarid qilib olingan madaniy boyliklar ko'rgazmasi tashkil etilishi belgilangan. Shu munosabat bilan, O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyida "Milliy merosga mening hissam" aksiyasi doirasida 2025 yil davomida Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi fondiga topshirilgan va qabul qilingan muzey ashyo-lari asosida maxsus ko'rgazma tashkil qilindi.

Madaniy merosni saqlash va restavratsiya qilishdagi o'rni Samarqandda joylashgan yirik muzeylar-O'zbekiston madaniyati tarixi davlat muzeyi, (Samarqand Davlat muzeyi qo'riqxonasi) Afrosiyob arxeologik muzeyi, Ulug'bek rasadxonasi muzeyi, Imom al-Buxoriy majmuasi muzeyi va boshqalar-qadimiy yodgorliklarni saqlash va restavratsiya qilish bilan shug'ullanadi. Bu muassasalar eksponatlarni saqlashda maxsus laboratoriyalar, klimat-nazorat tizimlari va malakali restavatorlar xizmatidan foydalanadi. Xususan, Afrosiyob muzeyidagi devoriy suratlar va qadimgi sopol buyumlar tarixning qadimgi sahifalarini ochib beradi.Samarqand davlat muzey qo'riqxonasida turli davrlarga oid arxeologik topilmalar, nuizmatika, etnografiya,sanat asarlari, tarixiy hujjatlarni muzey fondida saqlanadi.Saqlash jarayonida asosiy o'rinni iqlim egallaydi-bu harorat, namlik yoritish va tozalik uyg'unligidir. Harorat-namlik tartibining beqarorligi,turli fasillarga keskin o'zgarib turishi predmetlarning eskirish jarayonini tezlashtiruvchi asosiy omillardan biridir. Maslan qalaydan qilingan maxshulotlar 13°C da yemirillishni boshlaydi. Muzeyga keltirilgan predmetlarning harorat namlik tartibini aniqlash uchun ularning oldin qanday sharoitda saqlanganligini bilish zarur.Yer osti suvi ta'sirida bo'lgan arxeologik shisha buyumga pasaytirilgan namlik zarur, nam yerdan qazib olingan arxeologik yog'och buyumni esa juda kuchli namlikda saqlash lozim. Harorat-namlik tartibning nisbiy universitel ko'rsatkichi, harorat 18+1°S va namlik 55%+5% hisoblanadi. Yorug'lik salbiy ta'sir qiladigan materiallarni yorug'likdan himoya qiladigan font moslamasida saqlash lozim ular bilan ishlaganda yorug'lik 50-75 lyuksdan oshmasligi kerak predmetning tabiiy

eskirishini oldini olish kuchun yorug‘lik tartibiga ham rioya qilish zarur (107-108 b muzey ishi asoslari kitobi Kuryazova.Darmonjon)

Ilmiy-tadqiqot faoliyati Muzeylarning eng asosiy ijtimoiy vazifalaridan biri ilmiy tadqiqot ishlari dir. Juda ko‘p ilmiy tadqiqot institutlaridan faqrli o‘laroq ravishda muzeylarning ilmiy tadqiqot ishlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega.Uning o‘ziga xosligi asosan shundaki,muzeyda olib boriladigan ilmiy tadqiqotlar juda keng tarmoqli bo‘lib,o‘z navbatida uning natijalari ko‘p tarmoqlarga tasir etadi.Bu ilmiy tadqiqotlar biron bir tarixiy manbani o‘rganish maqsadida, shuningdek tarixiy manbalarni yoki bir turdagi muzey predmetlarini konservatsiyalash, restavratsiya qilish, saqlash qo‘riqlash hizmat ko‘rsatish maqsadida bo‘lishi ham mumkin.Tadqiqot ishlarida sohaga ko‘ra deyarli barcha fanlar, jumladan pedagogika, psixalogiya, satsialogiya fanlarining ham uslublari qo‘llaniladi.(40-41b.Muzeyshunoslik B. Boltayev) Muzeylar nafaqat saqlash, balki ilmiy izlanishlar markazi hamdir.Ular arxeologik ekspeditsiyalar tashkil etadi, yangi topilmalarni ilmiy asosda o‘rganadi va ularni ommaga taqdim etadi. Misol uchun, Afrosiyob muzeyi hududida olib borilgan qazilma ishlari natijasida topilgan yodgorliklar Markaziy Osiyo tarixini chuqurroq anglashga xizmat qilmoqda. Samarqand muzeylari yosh avlodga tarixni sevdish, milliy o‘zlikni anglash va vatanparvarlik ruhini shakllantirishda muhim ro‘lo‘ynaydi. Maktab o‘quvchilari, talabalar, tadqiqotchilar va sayyohlar uchun doimiy ekskursiyalar, madaniy tadbirlar, vaqtinchalik ko‘rgazmalar tashkil qilinadi. Bu orqali aholining tarixiy ongini yuksaltirishga xizmat qilinadi. Samarqandning boy madaniy merosi xorijlik sayyohlar orasida katta qiziqish uyg‘otadi. Muzeylar orqali shahar xalqaro miqyosda tanitilmoqda. Shuningdek, ko‘plab xorijiy muzeylar bilan hamkorlikda ko‘rgazmalar va ilmiy loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu esa O‘zbekistonning madaniy merosini dunyo miqyosida targ‘ib qilishga xizmat qiladi.

Shuni takidlash kerakki 2022-yilda Luvrdagi ko‘rgazmalarda namoish etilgan “Surxondaryolik ayol” asarida o‘zbek ayolini onalarga xos mehrli siymosini nihoyatda tasirli, va jonli tasvirlaganiki, asarda ayolning boshida oppoq harir ro‘moli, bejirim qilib tikilgan qizil rangli ko‘ylagi, taqinchoqlari ustamonlik bilan tasvirlanganki, uni ko‘rgan kishida o‘zgacha zavq bag‘ishlaydi. Musavvir yaratgan onalar siymosidagi yana bir fazilat onalarga xos donolik, ulug‘vorlik sermashaqat hayot yo‘lida beqiyos zahmatlar chekkaninng ifodasidir. (Samarqand davlar muzey qo‘riqxonasi 15-kirim kitobi).bundan ko‘rinib turibdiki birgina sanat asari orqali xalqimiz, xalqimiz madaniyati va tarixi butun dunyoga ovoza bo‘lmoqda

Xulosa qilib aytganda, Samarqand muzeylari madaniy merosni saqlashda, uni tadqiq etishda, xalqifmizning tarixiy xotirasini tiklashda va uni avlodlar qalbiga singdirishda muhim o‘rin tutadi. Muzeylar-bu millat xotirasi, tarixiy ong va madaniy qadriyatlarni

asrovchi maskanlardir. Shunday ekan, ularning faoliyatini yanada rivojlantirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va keng jamoatchilikni jalb etish muhim vazifalardan biridir. Chunki madaniy meros-bu o‘tmish bilan kelajakni bog‘lovchi ko‘prikdir. Iltiy yondashuvdan kelib chiqqan holda quyidagi nazariy-metodologik xulosalar chiqarish mumkin:

1. Muzeylar-tarixiy jarayonlarning ilmiy rekonstruksiyasi uchun muhim baza.

Samarqand muzeylaridagi arxeologik topilmalar, qo‘lyozmalar, moddiy-madaniy yodgorliklar shahar sivilizatsiyasining ming yillik taraqqiyotini ilmiy asosda tiklash imkonini beruvchi muhim materialdir.

2. Merosni saqlash jarayonida texnologik yondashuvlarning ustuvorligi.

Restavratsiya laboratoriyalari, konservatsiya usullari va raqamlashtirish texnologiyalari nafaqat fizik holatni saqlaydi, balki ilmiy tahlil uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Bu muzeylarni zamonaviy ilmiy infratuzilmaning ajralmas bo‘lagi sifatida ko‘rsatadi.

3. Muzeylar madaniy merosni shakllantiruvchi markaz

Ko‘rgazmalar va ilmiy ekspozitsiyalar orqali muzeylar tarixiy voqelikni ilmiy asoslangan talqinda keng jamoatchilikka uzatadi. Bu jarayon madaniy identitetning shakllanishida muhim omildir.

4. Muzeylar ijtimoiy-gumanitar fanlar uchun tadqiqot platformasi.

Arxeologiya, tarixshunoslik, san‘atshunoslik, etnografiya, numizmatika kabi yo‘nalishlar Samarqand muzeylarining ilmiy bazasidan foydalanib, yangi nazariyalar va tadqiqot natijalarini shakllantiradi. Samarqand muzeylari madaniy merosni saqlashda ilmiy asoslangan, tizimli va interdisiplinar yondashuvni (bu bir masalani turli ilmiy nuqtayi nazarlardan o‘rganuvchi yondashuvdir). amalga oshiruvchi fundamental ilmiy-ma‘rifiy institutlar sifatida namoyon bo‘ladi. Ularning faoliyati tarixiy merosni saqlashni faqat arxivlash darajasida emas, balki uni tizimli tahlil qilish, tadqiq qilish va ilmiy asosda targ‘ib etish jarayoni sifatida talqin etish imkonini beradi. Shunday qilib, Samarqand muzeylari nafaqat o‘tmishning saqlovchisi, balki hozirgi va kelajak ilm-fan rivojining muhim katalizatori sifatida harakat qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Muzey ishi asoslari kitobi, 107 – 108 b Kuryazova.Darmonjon
2. B. Boltayev Muzeyshunoslik kitobi, 40- 41 b
3. Samarqand davlat muzey qo‘riqxonasi 15- kirim kitobi
4. D. Qurbonova O‘zbekiston muzeylari istiqboli kitobi,7-8 b